UO‘K 801.81

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MA’DAN NOMLARINING TIBBIY XUSUSIYATI VA FIZIK XOSSALARIGA KO‘RA QIYOSIY TAHLILI

Radjabova Dilnoza Anvarovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
dilnozaradjabova064@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi qimmatbaho toshlar hamda ma’danlar nomlarining fizik xossalari va tibbiy xususiyatlariga ko‘ra shakllanishi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tosh va ma’dan nomlarining rang, shakl, kimyoviy tarkib, mustahkamlik kabi fizik belgilar hamda litoterapiya va xalq tabobati bilan bog‘liq tibbiy xususiyatlar asosida nomlanishi o‘rganilgan. Shuningdek, nominatsiya jarayonida metafora, o‘xshatish va assotsiativ tafakkurning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillarida ma’dan nomlarining shakllanish tamoyillarida umumiyliklar bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar ham mavjudligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *qimmatbaho toshlar, ma’danlar, nominatsiya, fizik xossalar, tibbiy xususiyatlar, gemmologiya, litoterapiya, qiyosiy tahlil.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF MINERAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK ACCORDING TO THEIR MEDICINAL PROPERTIES AND PHYSICAL CHARACTERISTICS

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the names of gemstones and minerals in English and Uzbek according to their physical properties and medicinal characteristics. The study examines the nomination principles based on color, shape, chemical composition, hardness, and other physical features, as well as names associated with lithotherapy and traditional healing practices. Particular attention is given to the role of metaphor, analogy, and associative thinking in the naming process. The findings reveal both universal and culture-specific patterns in the formation of mineral names in English and Uzbek, reflecting linguistic, historical, and cultural perspectives.*

Keywords: *gemstones, minerals, nomination, physical properties, medicinal characteristics, gemology, lithotherapy, comparative analysis.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ МИНЕРАЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ПО ИХ ЛЕЧЕБНЫМ СВОЙСТВАМ И ФИЗИЧЕСКИМ ХАРАКТЕРИСТИКАМ

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительный анализ названий драгоценных камней и минералов в английском и узбекском языках с точки зрения их физических свойств и лечебных характеристик. Исследуются принципы номинации, основанные на цвете, форме, химическом составе, твёрдости и других физических признаках, а также названия, связанные с литотерапией и народной медициной. Особое внимание уделяется роли метафоры, сравнения и ассоциативного мышления в процессе наименования. Результаты исследования показывают, что в английском и узбекском языках существуют как общие, так и национально-культурные особенности формирования названий минералов и драгоценных камней.*

Ключевые слова: *драгоценные камни, минералы, номинация, физические свойства, лечебные свойства, геммология, литотерапия, сравнительный анализ.*

Kirish. Til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tabiatdagi narsa-hodisalarni nomlash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, qimmatbaho toshlar va ma’danlarning nomlanishi ularning fizik, kimyoviy hamda funksional xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Gemmologik terminologiya nafaqat geologiya va mineralogiya fanlarining muhim tarkibiy qismi, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli tadqiqot obyektidir. Turli xalqlar va tillarda ma’dan hamda qimmatbaho toshlarning nomlanishida ularning rangi, shakli, mustahkamligi, porlashi, kimyoviy tarkibi yoki inson salomatligiga ta’siri asosiy nominativ omil sifatida xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ma’dan nomlarini qiyosiy o‘rganish ushbu birliklarning semantik xususiyatlarini, madaniy va tarixiy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, fizik xossalarga va tibbiy xususiyatlarga asoslangan nomlanishlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tabiat haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan qimmatbaho tosh hamda ma’dan nomlarining fizik va tibbiy belgilar asosida shakllanishi qiyosiy tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilimizda har bir so‘zlar guruhining o‘ziga xos nomlanish tizimi mavjud. Shulardan biri – gemmologiya bo‘lib, bu guruhga kiruvchi ayrim so‘zlar tarkibida ularning shaklini ifodalovchi sifatlar ham ishtirok etganiga guvohi bo‘lamiz: **“*Katta uchburchak”, “Olti qirrali yulduz”, “Mitti farishta”*** kabi. Bundan tashqari tosh va ma’danlarni nomlashda ularning shaklini ifodalab beruvchi *ellips – ellipse, kubik – cube, kichkina – small, burchakli – angular, qirrali – edged, ulkan – huge, oval – oval, to‘rtburchak – square, uchburchak – triangle, oltiburchak – hexagon* va shu kabi o‘nlab sifatlar ishlatiladi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, shakl bilan bog‘liq nomlanishlar kishilarda tosh va ma’dan haqida oson va aniq tasavvur paydo qilishga yordam beradi.

Abadiyat yuragi – ***Heart of Eternity.*** Janubiy Afrikadagi olmos koni – ushbu noyob ko‘k rangli fantastik toshning vatani. Olmos yurak shaklida ekanligi nomi uchun asos bo‘lgan. Dunyodagi eng qimmat olmoslardan biri. Bu qimmatbaho olmos vazni 27,64 karat bo‘lib, bahosi jihatdan dunyoda 7-o‘rinda turadi.

Agat zargarlik dunyosida faol qo‘llanadigan yarim qimmatbaho toshdir. Asosan, o‘ymakorlik uchun bezak materiali sifatida keng qo‘llanadi. Ular ichida ko‘z shaklidagi namunalar ham mavjud. Bu toshlar shakli ko‘zni eslatib turgani uchun ***“Allohning ko‘zi”*** – ***“The Eyes of Allah”*** deya nomlangan. Uning turli ranglardagi namunalari mavjud.

“*Kapalak”* – *“Butterfly”* deb nom olgan jozibali sardoniks. Ushbu tosh moviy, yashil, qora va sarg‘ish ranglarning uyg‘unligini namoyon etuvchi, kapalak qanotlari shaklidagi noyob ko‘rinishga ega. Uning nomlanishiga ham aynan kapalakka o‘xshash shakldaligi sabab bo‘lgan. Qadimdan bu tosh o‘rnatilgan zeb-ziynat buyumlari o‘z egalarini balo-qazolardan asraydi degan fikrlar bo‘lgan [1].

“Yo‘lbars ko‘zi” – “Tiger’s Eye” (sarg‘ish agat), “*Katta uchburchak” – “Big triangle” (*dunyodagi eng katta oltin bo‘laklaridan biri**), “****Ummon yuragi” – “The Heart of the Ocean”*** (yurak shaklidagi, o‘tkir ko‘k rangga ega bo‘lib, uning shakli va rangi nomi uchun asos bo‘lgan eng qimmat va taniqli olmos bo‘lib, mashhur “Titanik” filmini suratga olish jarayonida foydalanilgan taqinchoq kloni ushbu olmosning aynan taqlididir), shuningdek, *“Vazalar malikasi” – “Queen of vases”, Anor – Garnet, Krokoit – Crocoite, Nefrit – Nefrite, “Yong‘in agat” – “Fire Agate”, “Ayozli agat” – “Ice Agate”,* kabi qator mashhur tosh va ma’danlar shakl bilan bog‘liq nomlanishlarga ega bo‘lib, shu xususiyati bilan assotsiatsiya hosil qilib, inson lisoniy olam manzarasidan o‘rin olgan. (“5-ilova”)

Dunyoda o‘xshash narsa va hodisalar, hattoki, o‘xshash insonlar juda ko‘p, ammo shuni unutmaslik kerakki, ularning hech qaysisi bir-birini aynan takrorlamaydi. Hattoki, biz ilg‘ay olmagan, ko‘zimiz bilan ko‘ra olmaydigan shunday farqli jihatlar mavjudki, buni faqat soha mutaxassislarining maxsus tekshiruvlari orqali aniqlash mumkin. Tabiatda uchraydigan qimmatbaho toshlar va ma’danlar orasida bir-biriga shakli, rangi, yarqiroqligi, massasi, mustahkamligi, qarshilik, issiqlik o‘tkazish, porlashi jihatdan o‘xshash bo‘lgan ma’danlar ko‘plab uchraydi.

Qimmatbaho tosh va ma’danlar olamida ularning kimyoviy xossalari nihoyatda muhim sanaladi. Ma’lum tosh yoki ma’danning o‘ziga xos kimyoviy xossasi uning nomini shakllantirishga asos bo‘ladi. Biz quyida kimyoviy tarkibi bo‘yicha nomlangan bir qancha qimmatbaho tosh, ma’dan nomlarini ko‘rib chiqdik. Ulardan biri – *olmos (diamond).*

Olmos – yunoncha *“**adamas**”* so‘zidan olingan bo‘lib, “*buzilmas, mustahkam”* degan ma’nolarni anglatadi. Toshga bu nom bejizga berilmagan, chunki olmoslar qattiq va kimyoviy barqaror birikma, barcha minerallar ichida olmos eng katta qattiqlikka egadir [2]. Olmos so‘zini hind tilidan tarjima qilinganda *“sinmaydi*” degan ma’noni anglatishi ham bevosita toshning kimyoviy xususiyati bilan bog‘liq.

“*Tosh kristali”* nomi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda *“muzlagan tosh*” degan ma’noni anglatadi. Tosh – yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan qattiq, mo‘rt tog‘ jinslarining umumiy nomi. “Kristall” so‘zi yunoncha *“kristallos*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “**muz”, “tog‘ billuri**” degan ma’noni anglatadi. Qadimda odamlar bu tosh haqiqatda g‘alati tarzda saqlanib qolgan muz tosh ekanligiga ishonishgan.

Qadimgi Yunonistonda **ftorit** qimmatbaho tosh hisoblangan. Ulardan murrin vazalari yasalgan. Ftorit lotincha “*flure”* so‘zidan olingan bo‘lib, “**suyuqlik”, “oqmoq**” degan ma’noni anglatadi.

Dunyoning eng noyob va mashhur javohirlarini qalbakilashtirish hodisalari ko‘plab uchrab turadi, bu kabi jarayonlarda kimyoviy tekshiruvlar asosidagina bir-biriga ikki tomchi suvday o‘xshaydigan toshlar va ma’danlar qaysi jihati bilan farqlanayotganliklari ko‘rsatib beriladi. Va bu o‘z navbatida ularning

nomlanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, ya’ni ma’lum tosh yoki ma’danning o‘ziga xos kimyoviy xossasi uning nomini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Rangiga ko‘ra nomlanishlar. Qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari, odatda, biron qo‘shimchasiz yoki aniqlovchisiz atoqli otga aylanmaydi. Masalan, yer yuzida fanga ma’lum 2000 dan ortiq tosh va ma’danlar bo‘lsa, shularning har biri o‘z nomiga ega. Ko‘pincha, nomlash jarayonida tosh va ma’dan so‘zi oldidan ularning o‘ziga xos belgisini ifodalovchi so‘z qo‘llaniladi. Jumladan**,** *“Sutli kvarts*” (sut rangida bo‘lgani uchun), **“***Oq nefrit”, “Tutunli kvarts”, “Ulkan marvarid”, “Sintetik korunt”, “Boyitilgan turkuaz”, “Qora opal”* yoki *“Blue topaz”, “Synthetic sapphire”, “Milky opal” “Black pearl”,”White onyx”,”Foamy amber”* kabi. Nomlanishdagi bunday holat, ko‘pincha, har bir qimmatbaho va yarim qimmatbaho tosh hamda ma’danning ayricha – uni boshqa bir tosh va ma’dandan farqlashga xizmat qiluvchi belgisini ifodalab keladi. Bunday belgilardan yana biri ularning o‘ziga xos ranglar olamidir.

Aytish mumkinki, javohirlar qadimdan o‘zlarining turfa va betakror ranglari bilan insonlarni o‘ziga maftun etib kelgan. Eng hayratlanarlisi, tabiatda minerallar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ularning hech biri rangi jihatdan bir-birini aynan takrorlamaydi. Bir qarashda qanchalik o‘xshash ko‘rinsalar-da, ranglardagi ko‘z ilg‘amas nozik farqlanish nafaqat zargarlar va kimyogarlar, balki, tilshunos olimlar ishi uchun ham ancha yengillik tug‘diradi. Toshlar va ma’dan ranglari ularning nomlanishidagi asosiy unsurlardan biri ekanligi shu bilan daxldordir. Tadqiqot ishimiz jarayonida rang bilan bog‘liq nomlanishlarda 40 ga yaqin namuna izohlab ko‘rsatilganligining o‘ziyoq so‘zimiz isbotini ko‘rsatadi.

Melanit – Melanite shaffof bo‘lmagan qora rangli tosh bo‘lib, u shartli ravishda anorlarning eng kichik turlaridan biridir, deyish mumkin. Tosh o‘z nomini rangi tufayli olgan: ushbu so‘z yunon tilidan tarjima qilinganda “*qora*” degan ma’noni anglatadi.

Bronza so‘zi fransuzcha “bronze”, “birinj” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “*sariq mis”* degan ma’noni anglatadi [2].

Akvamarin – Aquamarine tabiatda eng ko‘p tarqalgan minerallardan biri. Tosh nomining kelib chiqishi mineralning rangi bilan bog‘liq**.** Bu so‘z *lotincha “aqua marina”* so‘zidan hosil bo‘lgan va “*dengiz suvi*” degan ma’noni anglatadi. Mineral rangi xuddi dengiz kabi yashil-moviy ranglarning uyg‘unligidan iborat [3].

Feruza – Turquoise fors tilidagi “firuze” so‘zidan olingan bo‘lib, “*yashil rangli qimmatbaho tosh”* degan ma’noni anglatadi. Sharq mamlakatlarida nihoyatda jozibador, qimmatbaho nodir tosh sifatida qadrlanadi, hattoki, xotin-qizlarga atoqli ot sifatida *Feruza* otidan foydalaniladi. G‘arb mamlakatlarida ***“Sharq toshi”*** deb ham nomlanadi. Bu ot tojik tilida “firo‘za” shaklida keltirilgan. O‘zbek tiliga esa fors tilidagi shakli (firuze) *e* tovushi *a* tovushiga almashtirilib qabul qilingan. Har ikki lug‘atda bu birlik ot sifatida kiritilib, “biryuza” deb izohlangan: O‘zbek tilining etimologik lug‘atida ham bu ma’no bosh ma’no sifatida berilib, moviy, havorang sifat ma’nosi ikkinchi o‘rinda keltirilgan [4]. Asli bu qimmatbaho toshga ism uning rangi asosida berilgan, demak, bu birlik bosh ma’nosiga ko‘ra sifat, ko‘chma ma’nosiga ko‘ra ot.

Malaxit – malachite **(**to‘q yashil, och yashil rangli mineral**), *gematit – hematite*** **(**qizil rangli mineral, “*qon*” degan ma’noni anglatadi), ***“mushukning ko‘zi” – “Cat’s Eye”*** (tosh ba’zan pushti, ba’zan yashil kabi jilolanadi), ***ruby*** (yorqin qizil, binafsha qizil, quyuq qizil kabi turlari eng ko‘p tarqalgan), ***“kaptar qoni”*** **–** ***“pegion blood”*** (binafsha rang va sof qizilning uyg‘unligidan hosil bo‘lgan rangda jilolanadi), ***safir – sapphire (***pushti, ko‘k, yashil, to‘q sariq, binafsha, jigarrang va hatto qora ranglarda ham bo‘lishi mumkin*), “oy toshi” – “moonstone”* (shaffof ko‘k-kumush rangli noyob mineral) kabilar ham rangiga ko‘ra nominatsiyalangan minerallar sanaladi.

Kumush – silver (oq-ko‘kish rangli qimmatbaho ma’dan), ***quyosh toshi – sunstone*** (o‘z rangi bilan samodagi quyoshni ifodalab, uning nurlarini esga solgani uchun ham uni “Q*uyosh toshi”* deb atashadi), ***ko‘k anor – blue garnet*** (anor turkumidagi minerallarning eng noyob vakili hisoblanadi), ***qizil olmos – red diamond*** (uning qimmat baholanishiga noyob qizil rangga egaligi sabab), ***gagat – gagate*** (yunoncha “*gagates*” so‘zidan olingan bo‘lib, *“qora qahrabo”* degan ma’noni anglatadi), ***farishta terisi – angel skin*** (marjon och pushti rangda bo‘lib, nihoyatda kam uchraydigan noyob toshlardan biri hisoblanadi, bu tosh o‘z nomini nozik rangi uchun olgan bo‘lib, nafis pushti rang farishtaning terisiga qiyos qilingan), **la’l** (arab tilidagi so‘z bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid, “*qimmatbaho qizil rangli tosh*” degan ma’noni anglatadi) kabi tosh nomlari ham rangiga asoslangan ma’dan nomlaridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning obyekti ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan qimmatbaho toshlar va ma’danlar nomlaridir. Tadqiqot jarayonida fizik xossalari (rang, shakl, qattiqlik, kimyoviy tarkib va boshqa tashqi belgilar) hamda tibbiy xususiyatlari asosida nomlangan ma’dan va qimmatbaho toshlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi nominativ birliklari o‘rganildi. Shuningdek, ushbu nomlarning semantik, etimologik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-tahliliy metod, semantik tahlil metodi, etimologik tahlil metodi, lingvokulturologik tahlil metodi, klassifikatsiya (tasniflash) metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turganidek, qimmatbaho tosh va ma’danlarning fizik xususiyatlarini ko‘rsatish maqsadida, ularni nomlashda olimlar asosan ilm-fan tili lotin va grek tilidan foydalanishgan. Misol uchun, ***albit*** toshining nomlanishi uning rangi bilan bog‘liq bo‘lib, u lotincha *“albus”* so‘zidan olingan bo‘lib, *“oq”* degan ma’noni anglatadi. Taroziga o‘xshagan mineral esa ***“lepidolit”*** deb nomlanadi, ya’ni grekcha lepis *“tarozi”*, lithos esa *“tosh”* ma’nosini bildiradi.

Qadimiy mashhur tabiblar bo‘lmish Galen bilan Gippokrat ko‘pgina tosh va minerallardan foydalanib, Sharq tabiblarining kasallarni davolash tajribalarini yig‘ib, javohirlarning xususiyatlarini o‘rganib chiqib, ularning ko‘pchiligidan tabobatda foydalansa bo‘ladi, deb xulosa chiqarganlar. Hattoki, Misr malikasi Kleopatra ham bu xususida izlanishlar olib borib, o‘zi uchun pardoz ashyolarini tayyorlagan, yuz qiyofasini parvarishlagan. Minerallarni katta e’tibor bilan o‘rganib chiqqan Abu Rayhon Beruniy ularga shunday mehr qo‘yganki, o‘zining “Mineralogiya” va “Saydana” nomli asarlarida bu minerallarning foydali tomonlarini ochib bergan. Mashhur hakim Ibn Sino ham shu xususida to‘xtalib, qaysi javohirning qaysi dardga davo ekanligini yoritib bergan. Bir muddat tabiblik faoliyati bilan shug‘ullangan mashhur shoir-u allomalar – Umar Xayyom va Al-Farobiylar ham tosh va ma’danlarning tibbiy xususiyatlaridan samarali foydalanganlar.

Muhokama. Hozirda tibbiyotda bemorlarni toshlar bilan davolash rasmiy tizimga kiritildi va u “Litoterapiya” deb nom oldi. Tibbiyotning bu yo‘nalishi kun sayin ommalashib bormoqda. Bugungi kunga kelib “Litoterapiya” Rossiya, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Xitoy, Tibet, Nepal kabi Osiyo va Yevropa mamlakatlarining tan olgan davolash usullaridir. Aslida, biz o‘rganib qolgan tibbiyot ham o‘zining kundalik faoliyatida tuz, mum yod, ohak, kaolinit, qum, kvarts, simob, azokerit, surma va boshqa ko‘pgina minerallardan foydalanadiki, bularning barchasi konlarda tosh sifatida qazib olinadi.

Toshlarning kuchi natijasida inson ko‘pgina kasalliklardan tuzalishi, atrofdagi dunyo bilan uyg‘unlikka kirishishi, shu bilan birgalikda kuchli ruhiy zo‘riqishlardan, stress va depressiyalardan xalos bo‘lishi mumkin. Mana shunday xususiyatga ega bo‘lgan toshlardan biri ***“Tinchlantiruvchi tosh”*** deb ataladi. Bu tosh xotirjamlik va tafakkur toshi hisoblanadi. Bu tosh ko‘pincha kishilarga depressiyadan xalos bo‘lishga yordam beradi, kayfiyatni yaxshilaydi.

Ushbu soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, toshlar va minerallar inson organizmiga quvvatni “tuhfa etadi”. Tabiatda tabiiy holda uchraydigan har bir toshning o‘z energiya manbayi mavjud. Shuning uchun ham turli insonlarga turli kasalliklarda bir xildagi toshlar yoki minerallar tavsiya etiladi. Olingan energiya inson organizmiga ta’sir qilib, uning hayotiy quvvatini oshiradi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan tosh va ma’danlar qadimdan juda qadrlangan, hattoki, insonlar ularni o‘zlarining doimiy “hamrohlari” qilib olishgan. Misr fir’avnlari o‘zlari vafot etganlarida tiriklik vaqti foydalangan toshlarini o‘zlari bilan birga ko‘mishni buyurganlar, bu sehrli toshlar u dunyoda ham o‘z egalariga sog‘lik va baxt olib kelishiga ishonilgan.

Qadimdan Xitoy mamlakatida *nefrit* toshiga nisbatan alohida shifolovchi xususiyat berilgan. Bu toshlar o‘z shakli jihatdan inson tana a’zosi – buyrakka o‘xshab ketgani uchun uni buyrak kasalliklarini davolashda foydali deb hisoblashgan, shu sababli bu yarim qimmatbaho toshga ***“Hayot toshi”*** deb nom berishgan. Qadimgi turkiy xalqlarda oq va dumba yog‘idek keladigan silliq nefrit toshini kaftingda bir necha daqiqa ushlab tursa, tinchlanishga yordam beradi deb hisoblangan. Shuning uchun ham turkiylarda bu tosh ***“Osoyishtalik toshi”*** deb nomlangan [1].

Anor toshi guruhiga kiruvchi maftunkor qora tosh o‘zining ko‘plab ajoyib xususiyatlari bilan zargarlik sohasida ham, kimyo sohasi va litoterapiyada ham alohida o‘ringa ega. Toshga *melanit* nomi kimyogarlar tomonidan unga qora rangga egaligi uchun berilgan bo‘lsa, litoterapiya sohasida o‘zining shifobaxsh xususiyatlari evaziga ***“Salomatlik toshi”*** deb yuritiladi.

Tog‘li Badaxshondan topilgan, ishlov berilmagan, tabiiy holda saqlangan *qizil shpaniyellar*. Bu tosh Turkiston xalqlarining eng sevimli toshi bo‘lib, uni tabiiy holda saqlashga katta e’tibor berilgan. Buning sababi toshning o‘ziga shifobaxsh xususiyatga egaligidir. Toshni bir muddatgina qo‘lida ushlab turgan odam o‘zida kuchli quvvatni his etadi va hislari junbushga keladi. Shu sababli ham bu toshga *“**Yurak toshi”**,* ***“Sevgi toshi”*** deb nom berishgan [1].

“Shodlik toshi”. Turkiston, Hindiston va Xitoy kabi qadimiy Sharq mamlakatlarida moviy rangli *kalsedon* sehrli tosh sifatida qadrlangan. Unga sof “Ilohiy kuch” ning ramzi deb qaralgan. Bu ma’danning “sehrli” xususiyati shundan iboratki, u insonga doimo ijobiy ta’sir qilib, kayfiyatini yaxshilashga yordam bergan. Bu, ayniqsa, xasta bemorlar kayfiyatini ko‘tarishda juda qo‘l kelgan. Shu sababli ham bu toshga “Shodlik toshi” deb nom berishgan.

Inglizlarda qimmatbaho tosh va ma’danlar insonlar salomatligiga ijobiy ta’sir etishiga ishonishadi va ba’zi toshlardan kasalliklarni davolashda va oldini olishda samarali foydalanishadi. O‘tgan asrlarda qimmatbaho toshlardan to‘rttasi: olmos, yoqut, sapfir va zumrad zaharga qarshi eng zo‘r vosita deb hisoblangan.

Insonlar hayvonlar tishlashi natijasida, oziq-ovqatdan, jodugarlarning afsuni sabab ko‘p zaharlanishgan va XVI – XVIII asrda yashagan ingliz xalqi uchun “zaharlanish” juda katta muammo edi. Angliyada tibbiyot hali to‘liq rivojlanmagan paytda, shifokorlar ko‘p kasalliklarning etiologiyasidan bexabar edi va shu sababli ular kasalliklarning sababi “zahar” deb o‘ylashgan. O‘sha davrlarda zaharni oldini olish, uni aniqlash yoki inson tanasidan uni olib tashlash usullarini ishlab chiqish juda muhim edi va eng qimmatbaho toshlar shu vazifalarni bajarish uchun qo‘llanilgan.

Kembrij Universiteti professori, XVII asr olimi Tomas Nikols o‘zining toshlar haqidagi kitobida ***“sapfirlar”*** haqida shunday deydi: “Sapfir – ***Zaharga qarshi dori***, agar bir idishga o‘rgimchak bilan shu tosh qo‘yilsa, o‘rgimchak darhol halok bo‘ladi”[5]. “Yoqut” va “zumrad” ham shunday kuchga ega deb hisoblashgan qadimda ingliz olimlari. Agar “yoqut” tumor sifatida taqilsa, yoki maydalanib suvga qo‘shilib ichilsa, zaharlanishni oldini olgan.

“Umrni uzaytiradigan dori” nomi bilan mashhur bo‘lgan marvarid va zumrad toshlari XVII asr olimi va faylasufi Frensis Bekonning “Hayot va o‘lim tarixi” kitobida tilga olingan bo‘lib, bu toshlar kukun holida qabul qilinsa yoki yashil limon sharbatiga qo‘shib ichilsa umrni uzaytirish xususiyatiga ega deb ta’riflanadi.

Toshlarning kuchi natijasida inson ko‘pgina dardlaridan, xastaliklardan xalos bo‘lishi, atrofdagi dunyo bilan uyg‘unlikka kirishishi, shu bilan birga kuchli zo‘riqishdan xalos bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri tanlangan tosh insonga ijodiy izlanishlar, shaxsiy hayotda va ishda muvaffaqiyatlarga erishishda yordam berish bilan birgalikda, o‘z sohiblariga omad keltiruvchi, yomon ko‘zlardan asrovchi, sog‘liqni yaxshilashga yordam beruvchi xususiyatlarga ega. Faqatgina tosh tanlashda adashmaslik kifoya. Har kim o‘ziga mos toshni tanlay olishi zarur, aks holda salbiy ta’sirlarga ham olib kelishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida ma’dan hamda qimmatbaho toshlar nomlanishida fizik, kimyoviy va tibbiy xususiyatlar asosiy motivatsion omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Fizik xossalarga oid nomlanishlarda shakl, rang, porlash darajasi va tashqi ko‘rinish asosiy o‘rin tutadi. Rang bilan bog‘liq nominatsiyalar eng sermahsul qatlamni tashkil etib, toshlarning boshqa minerallardan farqlanishini ta’minlaydi.

Tibbiy xususiyatlarga asoslangan nomlar esa xalq tabobati, litoterapiya va tarixiy-madaniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, insonlarning qimmatbaho toshlarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Har ikki tilda uchraydigan ko‘plab nomlar metaforik va assotsiativ xarakterga ega bo‘lib, insonning tabiatni idrok etish jarayonini ifodalaydi.

Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi ma’dan nomlari semantik jihatdan o‘xshash nominativ tamoyillar asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari milliy madaniyat, tarixiy tajriba va xalqona tasavvurlar ta’sirida o‘ziga xos xususiyat kasb etgan. Bu esa gemmologik terminologiyani lingvistik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *A’zam A. Javohirlar hukmi ostida. – Toshkent: Zarqalam, 2004. – B. 394.*
2. *Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. – B. 115.*
3. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000 –2005. – B. 774.*
4. *Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug’ati. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2009. – B. 233.*
5. *Harris N.E. The Idea of Lapidary Medicine: Its circulation and practical applications in Medieval and Early Modern England, 1000–1750: A diss. for the degree of Doctor of Philosophy. – New Jersey, 2009. – P. 121-122.*